

**IBN ARABIYNING TASAVVUFIY FALSAFASIDA BORLIQ,  
YO‘QLIK VA VAQT MASALASI**

**Yarashova Mohlaroyim Shuhrat qizi**

**Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**

**E-mail: [mohlaroyimyarashova@gmail.com](mailto:mohlaroyimyarashova@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XII–XIII asr islom olamidagi siyosiy, diniy va madaniy o‘zgarishlar sharoitida yashab ijod etgan buyuk mutasavvif va faylasuf Muhyiddin ibn Arabiyning hayoti hamda “vahdatul vujud” – borliqning mutlaq birligi ta’limoti tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda tarixiy-biografik, falsafiy-tahliliy va manbashunoslik yondashuvlariga asoslanib, Ibn Arabiy asarlarida borliq – yo‘qlik, vaqt, makon va ilohiy haqiqat masalalarining talqini yoritilgan. Bundan tashqari, uning boy ma’naviy merosi, shogirdlari va tasavvufiy qarashlari musulmon jamiyatining ma’naviy-intellektual qiyofasini shakllantirishdagi o‘rni bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, tasavvuf, jamiyat, ma’rifat, mafkura, shariat, tariqat, haqiqat, ta’limot.

**ВОПРОСЫ БЫТИЯ, НЕБЫТИЯ И ВРЕМЕНИ В СУФИЙСКОЙ  
ФИЛОСОФИИ ИБН АРАБИЯ**

**Ярашова Мохлароим Шухрат кызы**

**Соискатель Бухарского государственного университета**

**E-mail: [mohlaroyimyarashova@gmail.com](mailto:mohlaroyimyarashova@gmail.com)**

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются жизнь и учение великого суфия и философа Мухйиддина ибн Арабии, жившего и творившего в условиях политических, религиозных и культурных перемен в исламском мире XII–XIII веков, а также анализируется его доктрина «вахдат аль-вуджуд» абсолютного единства бытия. Также в исследовании, опираясь на историко-биографический, философско-аналитический и источниковедческий подходы, раскрыта интерпретация в трудах Ибн Арабия вопросов бытия и небытия, времени, пространства и божественной истины. Кроме того, его богатое духовное наследие, ученики и суфийские воззрения

имеют научное и практическое значение благодаря своей роли в формировании духовно-интеллектуального облика мусульманского общества.

**Ключевые слова:** духовность, суфизм, общество, просвещение, идеология, шариат, тарикат, истина, учение.

## **THE ISSUES OF BEING, NON-BEING, AND TIME IN IBN ARABI'S SUFİ PHILOSOPHY**

**Yarashova Mohlaroyim Shuhrat qizi**

**Researcher at Bukhara State University**

**E-mail: [mohlaroyimyarashova@gmail.com](mailto:mohlaroyimyarashova@gmail.com)**

**Annotation:** This article analyzes the life of the great Sufi and philosopher Muhyiddin Ibn Arabi, who lived and created in the context of the political, religious, and cultural transformations of the Islamic world in the 12<sup>th</sup>–13<sup>th</sup> centuries, as well as his doctrine of “wahdat al-wujud” the absolute unity of being. In addition, based on historical-biographical, philosophical-analytical, and source-critical approaches, the study highlights the interpretation in Ibn Arabi’s works of the issues of being and non-being, time, space, and divine truth. Moreover, his rich spiritual heritage, disciples, and Sufi views hold both scholarly and practical significance for their role in shaping the spiritual and intellectual identity of the Muslim community.

**Key words:** spirituality, sufism, society, enlightenment, ideology, sharia, tariqa, truth, doctrine.

### **KIRISH**

XII–XIII asrlar islom olami tarixida chuqur siyosiy, diniy va madaniy o‘zgarishlar yuz bergan davr bo‘lib, u birinchi va ikkinchi Renessans oralig‘idagi murakkab transformatsiya bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda musulmon dunyosi turli siyosiy markazlarga bo‘lingan, fathlar natijasida shakllangan yirik davlatlarda dini-ma’rifiy, mafkuraviy va g‘oyaviy xilma-xillik hukm surgan edi. Ana shunday tarixiy-sivilizatsion zamin, ijtimoiy jarayonlar va fikriy muhit buyuk mutasavvif va

faulasuf Muhyiddin ibn Arabiy (1165–1240)ning shakllanishi hamda ta'limotining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Ibn Arabiy o'z davrining eng yirik so'fiy mutafakkirlaridan biri sifatida “vahdatul vujud” – borliqning mutlaq birligi g'oyasini tizimli ravishda asoslab berdi. Uning fikricha, mavjudotlar zohiran xilma-xil ko'rinsa-da, aslida yagona ilohiy haqiqatdan kelib chiqqan va unda mujassamdir. Bu qarashlar o'sha davrdagi diniy-falsafiy bahs-munozaralarda keskin tortishuvlarga sabab bo'ldi, biroq u o'zining ijodiy merosi, falsafiy-irofoniy qarashlari va tasavvufiy tizimi orqali nafaqat islom olamida, balki keng madaniy makonda chuqur iz qoldirdi [1].

Shu jihatdan, Ibn Arabiyning hayoti va ta'limotini o'rganish nafaqat tasavvuf falsafasining ichki mantiqini, balki o'sha davr musulmon jamiyatining ma'naviy-intellektual qiyofasini anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

### **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda tarixiy-biografik, falsafiy-tahliliy va manbashunoslik yondashuvlari uyg'un qo'llanildi. Ibn Arabiyning hayoti va ta'limoti haqidagi asosiy ma'lumotlar tarixiy manbalar, zamondosh mutasavviflar asarlari hamda Eron kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalardan olindi. Tadqiqot davomida “vahdatul vujud” nazariyasining mohiyati, borliq va yo'qlik haqidagi tasavvufiy talqinlar, vaqt konsepsiyasi va ash'ariylar bilan fikriy yaqinlik masalalari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, Ibn Arabiyning turli safarlari, ulamolar bilan uchrashuvlari va asarlari jamiyat ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri izchil o'rganildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ibn Arabiy 1206-yilda Qohiraga alohida safar uyushtirib, o'sha joydagi so'fiy jamoalar bilan aloqa o'rnatadi va o'zining asosiy ta'limoti bo'lgan “vahdatul vujud” nazariyasini e'lon qildi [2].

Ibn Arabiy borliqda Allohdan boshqa narsalar mavjud emasligini har qanday borliq undan ekanligini, shuning bilan birga uning o'zi hech bir narsada bo'lmasligini, uni faqat uning o'zi anglashligini aytadi: “U biron narsada emas va

biron narsa yo‘qki, Unda bo‘lmasa. U ichkarida ham emas, tashqarida ham emas. Uni shunday sifat bilan tanish kerak. Uni na ilm na aql bilan, na fahm na vahm bilan, na zohir his bilan, na botin ko‘z bilan va na idrok bilan anglab bo‘lur. Uni faqat Uning o‘zigina ko‘rar va Uni faqat Uning o‘zigina idrok qilar. U o‘zini O‘zi orqali bilar va U o‘zini O‘zi orqali anglar. U o‘zini O‘zi bilangina ko‘rar, o‘zga birov ko‘rolmas” [3].

Mutasavvif borliq va yo‘qlik masalasini tasavvufiy-irfoniy nuqtai nazaridan tahlil etgan. Ibn Arabiy payg‘ambar (s.a.v.)ning “Parvardigorim, menga barcha narsalarni ular aslida qanday bo‘lsalar shundayin ko‘rsat”, - degan hadisini keltirib, botiniy ma‘nosini sharhlab o‘tadi: “Menga O‘zingdan o‘zga nima bor anglat, men narsalarning Senmi yoki Sendan boshqami, ular qadimiy boqiyimi yoki yaratilmish foniymi bilay. Alloh ta’olo Muhammad (s.a.v)ga Uning o‘zidan o‘zga narsa, va o‘zga vujud yo‘qligini ko‘rsatdi. Payg‘ambar (s.a.v) esa narsalarni aslida qanday bo‘lsa, shunday ko‘rdilar, ya’ni, narsalar bu Alloh Ta’oloning o‘zidir. Buni “Qanday?”, “Qayerda?” bilan tushuntirib bo‘lmas” [3].

Islom aqidasi ko‘ra Alloh ta’olo borliqni yo‘qlik olamidan paydo qildi, ya’ni, adamdan vujudga keltirdi. Demak, biz bilgan, ko‘rgan, ushlagan, o‘ylagan hamma narsalar vujudga mavjuddirlar, ya’ni, jannat-u do‘zax, arvoh-u farishta, jin-u shayton, dunyo olami, ruhlar olami, malakut va lohut olami vujud bilan bordirlar. Adam, ya’ni, yo‘qlik olami qandayligini Haqdan o‘zga zot bilishga qodir emas. Ibn Arabiy mana shu ikkilik, adam va vujud bir-biridan ayrilgan emas deb tushuntiradi. Agar ularni alohida deyilsa, “vahdat”, ya’ni, Allohning zoti birlikdan iboratligiga zid bo‘ladi. Diniy istiloh bilan aytilsa, “shirk” bo‘ladi. Shirk esa Qur’onda eng ulug‘ gunohlar sirasiga kiradi va shariatdagi “tavhid”ga qarshi bo‘lib qoladi. Islomga kirishning birinchi sharti bo‘lgan “La ilaha illalloh” (“Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir”) iymon kalimasini rad qilgan bo‘ladi. Allohdan o‘zga zot yo‘q ekan Ibn Arabiy ta’limotiga ko‘ra “Har qanday kasrat vahdatdan iborat”, ya’ni har qanday ko‘plik asosida birlik yotadi, - deya xulosalar chiqaradi.

Ibn Arabiy so‘fiylarning ash’ariylar bilan mohiyatan birbiriga juda yaqin qarashlari sirasiga “Tajdidul a’roz” (“Aksidensiyaning o‘zgarib turishi”)ni ham

kiritadi. U ash'ariylarning bu boradagi fikrlari bilan o'zining so'fiylik tizimidagi fikrlarini solishtirib, ular o'rtasidagi yaqinlikni ko'rsatib beradi: "Ash'ariylar butun borliqni yagona substansiya (Javhar) deydilar. Biz mohiyat yagona deymiz. Ular yana deydilar: "U araz (aksidensiya)da farqlanadi". Biz deymizki: "U shakl va hajmda ko'payadi". Deydilar: "Nimaiki yo'q bo'lsa, o'zgaga bor, yoki o'zgaga aksidensiya (araz)da bor, yoki o'zgaga xossa bor". Qanday xohlasang aytaver" [4].

Mutasavvif "Vaqt bu bir mashhaddir" ya'ni, vaqt sanoqsiz darajada mavjuddir deb, "biroq, maqomlar o'zgargani sari u ham o'zgarib boraveradi", - degan xulosaga keladi. Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo'ladi. Har qanday o'zgarish – harakatdir. O'zgarishlar nafaqat moddiy obyektlarga, balki ma'naviy, g'oyaviy ob'yektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy va g'oyaviy) obyektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli namoyon bo'ladi. Shu sababli harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir. Inson kamolotga erishishda o'zining darajasini oshirgani sayin vaqtni anglashi ham o'zgarib boradi. Ibn Arabiy "... maqsad muridning vaqti to'g'risida", fikr yuritib, har xil begona g'oyalarga chalg'imaslikka chaqiradi.

Ibn Arabiy vaqtni kun va tunga, falaklarning harakatiga bog'lab tushuntiradi. Mutasavvif: "Ma'lum bo'lsinki, kecha va kunduz, kun, oy va yil kabi tushunchalar soatlar deb ataluvchi vaqtlardan iboratdir. Aslida bularning bari aynan mavjud emas, ular nisbiy mansublik va izofalardir" [5], - deb izohlaydi. Ibn Arabiy ta'limotida o'tmish va kelajak ham zamondagi onlar hukmi ostida bo'ladi.

Uning o'ziga xos bu tasavvufiy ta'limoti shariat tarafdorlari va an'anaviy so'fiylik maktablari tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Vaziyat shu darajaga yetib bordiki, uni toshbo'ron qilishlariga sal qoldi.

"Ibn Arabiyning ta'limoti to'g'risidagi tortishuvlar o'z zamondoshlari orasida katta hayajon va g'azabga sabab bo'ldi. Mutasavvifning Mag'ribdan Mashriqqa qilgan sayohati davrida Misrdan o'tayotganida uning shatahotlari (ya'ni, hol bilan aytayotgan tushunarsiz gaplari) faqihlarni qattiq g'azablantirdi va uni xuddi Mansur Halloj kabi qatl qilmoqchi bo'lib, qamoqqa soldilar. Ibn Arabiyni muqarrar o'limdan Bajoya shaharchasining obro'li kishilaridan bo'lgan

Ali ibn Fath al Bajoiy qutqaradi”. [1] Shundan so‘ng, u Misrdan chiqib ketdi va Makkaga safar qildi.

Ibn Arabiyning Makkaga qilgan bu ikkinchi safari 1207-yilga to‘g‘ri keladi [6]. Bu yerda u uch yilga yaqin umrini tinchlik va xotirjamlikda, juda ko‘plab kitoblarni ta’lif qilish bilan o‘tkazdi. Keyingi safari Saljuqiylarning o‘sha paytdagi poytaxti Qo‘nyoga bo‘ldi va shu joyda 1223-yilgacha yashab ijod qildi. Aynan shu davrda uning shuhrati Eron va Hindistongacha bo‘lgan islom o‘lkalariga yoyildi.

Manbalarda kelishicha, u shu yerda o‘zining eng mashhur shogirdi va keyinchalik Ibn Arabiy ta’limotining davomchisi bo‘lgan Sadriddin Qo‘naviyning onasiga uylangan. Bu bilan hali o‘smir Sadriddin uning ham o‘g‘li ham shogirdiga, keyinchalik esa uning izdoshi va tariqatining davomchisiga aylandi.

Ibn Arabiy Turkiyadaligi davrida ham bir necha shahar va yurtlarga safar qildi. Bular qatoriga Armanistondan to Frot (Yefrat) daryolig‘i oralig‘ida bo‘lgan joylarni aytib o‘tish mumkin.

1211-yilda u islom tasavvuf olamining yirik vakili, so‘fiy va mutafakkir Shihobuddin Umar Suhravardiy bilan uchrashadi. Shubhasiz bu uchrashuv uning dunyoqarashi va bilimini oshishiga xizmat qilishi bilan birga Suhravardiyning ham dunyoqarashiga katta ta’sir qilgan.

Ibn Arabiy 1214-yilda yana Makkaga safar qiladi. Uning bu joyga kelganidan xabar topgan bir necha faqihlar bundan o‘n uch yilcha oldin tuzgan devoni “Tarjumonul ashvoq”dagi g‘azallarning ramziy ekanligini tushunmay, unga turli tuhmat toshlarini ota boshladilar. Uni o‘z pirining qizi Nizomga oshiq bo‘lganlikda aybladilar. Ibn Arabiy bu yerda uzoq turolmay Halab shahriga bordi. Halabning amiri unga munosib harmat va izzat ko‘rsatdi. Shu sababli u umrining biri necha yilini Halabda o‘tkazdi.

1223-yilga kelib, Ibn Arabiy Damashqqa ko‘chib keldi. Damashq hokimi uni qattiq e’zozladi va unga murid bo‘ldi. Mutafakkir umrining qolgan yillarini shu joyda yashab o‘tkazdi. Bu joydan turib, juda ko‘plab asarlarini yozdi va ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. 1240-yilning 16-noyabrida Damashqda vafot etdi va shu joyga ko‘mildi. Uning qabri hozirgi kungacha ham mavjud.

Mutasavvif tasavvuf ta'limotining nazariy-axloqiy masalalarida ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan bahs yurituvchi to'rt yuzdan ortiq risolalar yozgan. Ushbu tadqiqotda o'ttizga yaqin mutasavvif asarlaridan hamda Eron kutubxonasi xazinasida saqlanayotgan o'nga yaqin qo'lyozmalardan foydalanilgan. Mutasavvif risolalarida falsafiy, orifiy, tasavvufiy muammolar va ularning echimi yoritilgan. Ibn Arabiy risolalarining tasnifi shuni ko'rsatadiki, uning qarashlarida borliq, bilish, Allohning sifatlari, axloq, inson, tabiat, makon va zamon kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Ibn Arabiy hayot yo'lini o'rganish tasavvuf falsafasini tushunib etishda muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan uning tarjimai holi va mutasavvifning so'fiylik ma'rifatining rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Mutasavvif falsafiy masalalarni tasavvuf tushunchalari orqali tahlil etgan. Ibn Arabiy shariat orqali tariqat malakasini o'zlashtirib, o'zligini anglagan holda haqiqatni yagona tizimga solgan. Ibn Arabiyning boy ma'naviy merosi va shaxsiy ibrati jamiyatda yosh avlodni o'tmish ma'naviy merosidan bahramand qilishda muhim ahamiyatga egadir. Uning risolalari islom qoidalarini to'g'ri anglashda, yurtimizda pok axloqiy qadriyatlarning qaror topishida shubhasiz, muhim o'rin egallaydi.

## **XULOSA**

XII–XIII asrlar musulmon dunyosi tarixida yuz bergan siyosiy, diniy va madaniy o'zgarishlar fonida Muhyiddin ibn Arabiyning hayoti va ta'limoti o'ziga xos tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. U tasavvuf falsafasida “vahdatul vujud” g'oyasini mukammal tizimga solib, borliqning yagona ilohiy manbadan kelib chiqishini falsafiy va irfoniylar bilan asoslab berdi. Ibn Arabiy borliq–yo'qlik, vaqt, makon va ilohiy haqiqat masalalarini Qur'on, hadis va tasavvufiy tajribalar orqali yoritib, shariat, tariqat va haqiqat bosqichlarini yagona ma'rifiy tizimga birlashtirdi. Mutasavvif o'z davrida keng bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, ba'zan tanqid va ta'qiblarga duch kelgan bo'lsa-da, ijodiy merosida islom aqidasi, ma'naviy poklik va axloqiy komillikni targ'ib qildi. Uning qarashlarida

har qanday ko‘plik asosida birlik yotishi, vaqtning nisbiyligi, harakatning mavjudlikning zaruriy sharti ekani kabi g‘oyalar markaziy o‘rin egallaydi.

Ibn Arabiy tomonidan qoldirilgan to‘rt yuzdan ortiq risola va asarlar, shuningdek shogirdlari orqali davom etgan ma’naviy maktabi, tasavvuf falsafasi rivojiga, musulmon jamiyatining intellektual va ma’naviy qiyofasiga katta hissa qo‘shdi. Uning boy merosi bugungi kunda ham islom falsafasini, ruhiy tarbiyani va qadimiy ma’naviy merosni chuqur anglashda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Boltayev A.A. Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro. 2023. – 76 b.
2. Izoh: Ibn Arabiyning o‘zi bu nazariyani shu nom bilan atamagan. Keyinchalik, bu ta’limot, ya’ni Haq va xalqning bitta vujud ekanligi mazmunini ifoda etuvchi “vahdatul vujud” (vujud yagonaligi) nomi bilan talqin qilinda va shu nom bilan shuhrat qozondi.
3. الرسالة الوجودية. محي الدين محمد بن علي بن محمد ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 7008 ص1.
4. ابن عربي. فصوص الحكم. بيروت: دار الكتاب العربي، 3886-158 ص.
5. كتاب الإسفار عن نتائج الإسفار، ضمن رسائل ابن عربي، وضع حواشيه محمد عبد الكريم النمري، دار الكتب العلمية، بيروت، لبنان، 7002 م.
6. Sobirovich, T. B. (2024). Renewal of Societal Ideosphere: An Analytical Study of Medieval Philosophical Thought. *Philosophy*, 8(3), 12-18.
7. Sobirovich, T. B. (2025). The Development of Political Doctrines in the Context of Medieval Central Asian Civilization. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 7(2), 16-24.
8. Sobirovich, T. B. (2024). The Dynamics of Ancient Thought: How Philosophies Shaped Changing Societal Ideospheres. *Dynamics*, 8(3), 19-24.